Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

Xulosa qilib aytganimizda, ERP va CRM tizimlarini integratsiyalash banklar uchun muhim bosqich bo‘lib, ularning ish jarayonlarini soddalashtiradi, samaradorlikni oshiradi va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilaydi.

Sun'iy intellekt (SI) va ma'lumotlarni tahlil qilish banklar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. SI yordamida banklar xavf-xatarlarni oldindan bashorat qilish, firibgarliklarni aniqlash va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taqdim etishda yanada samarali bo‘lishadi.

Banklar o‘z tizimlarini xavfsiz qilish, ma'lumotlarni himoya qilish va kiberhujumlarga qarshi samarali choralar ko‘rishlari zarur. Bank boshqaruvini avtomatlashtirish va rivojlantirish uchun yuqoridagi uchta strategiya — ERP va CRM tizimlarini integratsiyalash, SI va ma'lumotlarni tahlil qilishni joriy etish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash — banklarga zamonaviy va samarali boshqaruvni ta'minlashda yordam beradi.

Ularning birlashgan qo‘llanilishi bankning ichki tizimlarini optimallashtirib, mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini oshiradi va xavfsizlikni ta'minlab, banklarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Bu chora-tadbirlar banklarga yanada mustahkam o‘sish va muvaffaqiyatni ta'minlashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Dey, J. (2018). Moliyaviy muassasalar uchun Enterprise Resource Planning (ERP). Oxford University Press.
2. Garrison, W., & Tynan, P. (2020). Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish: Konseptsiyalar, vositalar va ilovalar. Pearson Education.
3. Laudon, K. C., & Laudon, J. P. (2019). Boshqaruv axborot tizimlari: Raqamli firmalarni boshqarish. Pearson Education.
4. Sharma, R., & JSIn, S. (2021). Moliyaviy sektor uchun sun'iy intellekt: Trendlari, ilovalari va muammolari. Springer.
5. TechTarget. (2023). ERP va CRM tizimlarining bank sektoridagi roli. [onlayn] Mavjud manba: https://www.techtarget.com.
6. IBM. (2023). Banklarda sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilishni amalga oshirish. [onlayn] Mavjud manba: https://www.ibm.com

ПУЛ МАБЛАҒЛАРИНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШНИШ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Saliev Bahodir Komilovich
ТДИУ Andijon fakkulteti dotsenti,и.ф.н.

375

Published: 24.05.2025

Cite this article: Saliev Bahodir Komilovich, Bahodirov Mirkomil Nodirbek o‘g‘li, Isroiljonov Nurmuxammadbek Sherzodbek o‘g‘li (2025). Пул маблағларини самарали бошқаришниш такомиллаштиришнинг долзарб масалалари. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/347

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Bahodirov Миркомил Nodirbek o‘g‘li
Toshkent Bucheon Universiteti talabasi
Isroiljonov Nurmuxammadbek Sherzodbek o‘g‘li
TDIU AF “Iqtisodiyot” yo‘nalishi talabasi

O’zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli makroiqtisodiy tarkibiy islohotlar sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy resurslarni samarali boshqarishning eng muhim strategik masalalaridan biri - bu ularning pul mablag‘larini oqilona boshqarish orqali kapitali aylanishni tezlashtirish hisoblanadi. Uni amalga oshirish albatta operatsion sikl davomiyligini qisqartirish, o‘z kapitalini tejab-tergab ishlatish va qolaversa qarz kapitaliga bo‘lgan talabni kamaytirish evaziga amalga oshirish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar ish faoliyatini samaradorligi ko‘p jihatdan uning pul mablag‘larini boshqarish tizimini oqilona tashkil qilishga bog‘liq.

Pul mablag‘larini boshqarish tizimi ham boshqa har qanday boshqarish tizimi kabi o‘zining ob’ekti va sub’ekti, funksiyalari va tamoyillarining aniq belgilab olishni hamda tizimning muhim unsurlari sifatida – metod va instrumentlarini, qolaversa me’yoriy-xuquqiy, axborot, dasturiy ta’minotlari kabi masalalarni atroflicha ko‘rib chiqishni taqozo qiladi.

Pul mablag‘larini boshqarishning **ob’ekti** bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning turli (operatsion, investitsion, moliyaviy va boshqa) faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan pul oqimlari hisoblanadi.

Pul mablag‘larini boshqarishning sub’ekti bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy xizmat bo‘limi hisoblanadi. Moliyaviy xizmat bo‘limining tarkibi va xodimlari soni xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning razmeri, bo‘limlari soni, ishlab chiqarish xajmi, faoliyat yo‘nalishi va boshqa omillarga bog‘liq. Jumladan kichik korxonalarda bosh buxgalter moliya bo‘limlari boshlig‘i funksiyalarini qo‘shib olib boradi; o‘rtacha korxonalarda – buxgalteriya, moliyaviy rejalashtirish va operativ boshqarish alohida bo‘limlarga ajratiladi; yirik korxonalarda esa, tarkibiga buxgalteriya, moliyaviy rejalashtirish va operativ boshqarish, moliyaviy tahlil, kimmatli kogozlar va valyuta bo‘limlarini o‘z ichiga oluvchi moliya departamenti tomonidan boshqariladi.

Pul mablag‘larini boshqarishning asosiy funksiyalari umumqabul qilingan boshqarish funksiyalar – prognozlash, rejalashtirish, tashkil qilish, muvofiqlashtirish, rag‘batlantirish, hisobga olish, nazorat qilish va boshqalar orqali amalga oshiriladi.

Pul mablag‘larini boshqarishning asosiy tamoyillariga axborotlarni ishonchliligi tamoyili (pul oqimlarini hisobga olish turli (kassa va hisoblash) metodlar yordamida turli ko‘rsatkichlarni o‘zgarishini hisobga olgan holda amlaga oshirilganligi uchun, ular ishonchliligini ta’minlashni taqazo qiladi); muozanatni ta’minlash tamoyili (pul oqimlarini turlari – operatsion, investitsion va moliyaviy faolit, xajmi – yalpi va sof, vaqt oralig‘i – davriy va fursatli hamda boshqa belgilari bo‘yicha o‘zaro muvozanatini saqlashni taqazo qiladi); samaradorlikni ta’minlash tamoyili (pul mablag‘larini kirim va chiqimi bir hil bo‘lmaganligi uchun vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini inflyatsiya va boshqa omillar ta’siridan – pulning vaqtdagi qiymatini – saqlashni taqazo qiladi); likvidlikni ta’minlash tamoyili **(**ma’lum vaqt oralig‘ida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni to‘lov qobilyatini ta’minlab turish uchun aktivlarni likvidlik – joriy aktivlarning optimal strukturasi – darajasini ta’minlab turishni taqazo qiladi) kabilarni kiritish mumkin.

Pul mablag‘larini boshqarishning moliyaviy metodlariga xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning pul mablag‘lari oqimi strukturasi va dinamikasiga hamda uning tashkil qilinishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi quyidagilarni kiritish mumkin: debitor va kreditorlar bilan hisoblashish, investorlar, kontragentlar, davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlari tizimi, shuningdek, kreditlash, moliyalashtirish, fondlarni tashqil qilish, investitsiyalash, sugurtalash, soliq solish, faktoring va boshqalarni keltirish mumkin.

Pul mablag‘larini boshqarishning moliyaviy instrumentlariga pul, kredit, soliq, hisoblashish shakillari, investitsiya, baho, veksel va fond bozorining boshqa instrumentlarini, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda moliyani tashkil qilish xususiyatlari bilan tarkibi aniqlanadigan amortizatsiya, dvidendlar, depozitlar me’yorlari va boshqa instrumentlarni kiritish mumkin.

Pul mablag‘larini boshqarishning xuquqiy-me’yoriy ta’minoti tarkibiga davlatning qonuniy – normativ aktlari, belgilangan me’yor va me’yorlashlar, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning nizomi, ichki buyruq va formoyishlar, shartnomalar bazasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Pul mablag‘larini boshqarishning axborot ta’minoti eng avvalo faoliyatni boshqarish uchun zarur bo‘lgan zaruriy axborotlarni oqilona oqimini tashqil qilish va olingan axborotlarni tezlik bilan ishlash va ular asosida zaruriy moliyaviy qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq. Bu o‘rinda nafaqat ichki balki, tashqi axborotlar bilan ta’minlash ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Pul mablag‘larini boshqarishning dasturiy ta’minotini o‘rni hozirgi vaqtda alohida ahamiyat kasb etmokda. Chunki boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimiga o‘tilishi, o‘z navbatida pul mablag‘larini hisobga olishda qo‘llanadigan amaliy

buxgalteriya dasturlarida foydalanish zaruratini taqazo qiladi. Bunday dasturlar dastavval puxta, ishonchli, moslanuvchan va qo‘llash uchun qulay bo‘lishi lozim.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, pul mablag‘larini boshqarish tiziga xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish uchun uning moliyaviy bo‘limi tomonidan uzluksiz va maqsadli ta’sir etib turishdagi metodlar, instrumentlar va maxsus usullari majmui sifatida qaralishi mumkin.

Pul oqimlarini samarali boshqarish xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy va ishlab chiqarish moslanuvchanligini oshiradi, chunki u birinchidan, pul mablag‘larini kirimi va chiqimini tenglashtirish nuqtai nazardan uni operativ boshqarishni yaxshishga, ikkinchidan, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar resurslarini manyovr qilish imkoniyatlari hisobiga sotish xajmini ko‘paytirish va harajatlarni optimallashtirishga, uchunchidan, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning har bir bo‘limining samarali ishlashi uchun, uning butun moliyaviy xolatini baholash uchun puxta zamin yaratadi.

Shuningdek, pul oqimlarini samarali boshqarish yana bir yaxshi kirrasi – bu uning qarz majburiyatlari va u bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish, kreditorlar va mol yetkazib beruvchilar bilan muzoqaralar shartini yaxshilashga olib keladi. Qolaversa pul mablag‘larini optimal boshqarayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning aktivlarining likvidlik darajasini oshishiga olib keladi.

Pul mablag‘lari oqimini xajmi va vaqti bo‘yicha yuqori darajada mutanosiblashtirish natijasida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning asosiy faoliyatiga xizmat qiluvchi, shuningdek real investitsiyani amalga oshirish uchun investitsion resurslar zahirasi sifatidagi pul aktivlarini joriy va sugurta qoldig‘iga bo‘lgan real talabini kamaytirish imkonini beradi.

Pul mablag‘larini boshqarish tizimida eng asosiy masalalardan yana biri bu uning turlari, xajmi, vaqt oralig‘i va boshqa muhim tomonlari bo‘yicha mutanosiblikni ta’minlashdir. Bu masalani muvofaqqiyatli hal qilish esa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatida moliyaviy rejalashtirish, uchet, tahlil va nazorat tizimini takomillashtirish darajasiga bog‘liq.

Ma’lumki, pul mablag‘lari oqimini optimal boshqarish bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlarning optimalligi eng avvalo ulardan foydalanishni qay darajada tahlil kilinishiga bog‘liq. Chuqur va atroflicha o‘tkazilgan tahlil pul mablag‘laridan foydalanish soxasida yo‘l qo‘yilayotgan ayrim kamchiliklar, xatolar va eng muhimi, ular samaradorligini oshirish borasida foydalanilmayotgan rezervlarni aniqlash imkonini beradi.

Pul mablag‘lari oqimini tahlil kilishda qo‘llanadigan an’anaviy usulda har bir faoliyat bo‘yicha uning tarkibiga kiruvchi elementlarni aloxida-aloxida hisoblab olinib, keyin ularni qo‘shib chiqib, ma’lum bir faoliyat yo‘nalishi – operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat bo‘yicha sof pul oqimlari hisoblanadi. Bu usul ancha ko‘p vaqt va qo‘shimcha hisob kitoblar talab qiladi. Shu sababdan ham biz anashu hisoblarni qisqartirish nuqtai nazardan umumiy hisob formulalarini ishlatish maqsadga muvofik deb hisoblaymiz va ularni kuyida keltirib utamiz.

Operatsion faoliyatdan sof pul oqimi (O_{SP})ni to‘g‘ri va egri usullar bilan hisoblash mumkin. To‘g‘ri usulda hisoblaganda pul oqimlarini o‘zgarishiga har bir moddani o‘zgarishini natijaga ta’siri to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisoblanadi. Bunda sof pul oqimini o‘zgarishi sotishdan (S_T) va boshqa operatsion faoliyatdan (B_{OT}) tushgan tushum; xom-ashyo, materiallar va yarim fabrikatlarga to‘lov (X_{MT}); ishchilarga to‘langan ish xaklari (I_{IX}); ma’muriy boshqaruv xodimlariga to‘langan ish xaklari (I_{MB}); budjetga to‘langan soliq to‘lovlari (T_{SX}); budjetdan tashqari fondlarga to‘lovlar (B_{TF}) va operatsion faoliyatning boshqa to‘lovlari (B_{OX}) bilan bevosita bog‘liq, ya’ni

$$O_{SP} = S_T + B_{OT} – X_{MT} – I_{IX} – I_{MB} – T_{SX} - B_{TF} - B_{OX}$$

Keltirilgan formuladan ko‘rinib turibdiki, pul mablag‘larini o‘zgarishiga har bir omilni ta’siri uning oldida to‘rgan ishora bilan ifodalangan. Agar o‘rganilayotga moddani ko‘payishi operatsion faoliyatdan pul mablag‘larini ko‘paytiradigan bo‘lsa musbat ishora bilan, aksincha bo‘lsa, manfiy ishora bilan yozilgan.

Operatsion faoliyatdan sof pul oqimini egri usulida hisoblashda esa, to‘g‘ri usuldan farqli sof foydani o‘zgarishiga hisobotning turli moddalarni o‘zgarishi ta’siri aniqlanadi, Bunda sof foydani (S_F) o‘zgarishiga amortizatsiya (**A**), qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar (K_{MK}), debetorlik (D_K) va kreditorlik (K_K) qarzlari hamda ishlab chiqarish zaxiralari (**Z**) summalarini o‘zgarishini (o‘sishini-Δ) ta’siri aniqlanadi, ya’ni

$$O_{SP} = S_F + A - \Delta K_{MK} - \Delta D_K - \Delta Z + \Delta K_K$$

Korxonalarning investitsion faoliyatidan sof pul oqimi (I_{SP}) odatda uzoq muddatli aktivlar summalarini o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, uni hisoblash faqat to‘g‘ri usul yordamida amalga oshiriladi. Bunda sof pul oqimini o‘zgarishi, asosiy vositalar (A_V), nomoddiy aktivlar (N_{MA}), tugallanmagan qurilish (T_Q), uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalar (U_{MK}) va boshqa uzoq muddatli aktivlar (B_{UMA}) summalarining o‘zgarishlariga bog‘liq, ya’ni

$$I_{SP} = - \Delta A_V - \Delta N_{MA} - \Delta T_Q - \Delta U_{MK} - \Delta B_{UMA}$$

Keltirilgan formuladan ko‘rinib turibdiki, investitsion faoliyat bilan bog‘liq har qanday maddaning o‘sishi (Δ) korxonaning pul mablag‘larini chiqib ketishiga olib kelishi tabiiy va aksincha. Xususan asosiy vositalarni sotib olish uchun korxona pul

sariflaydi va aksincha o‘zining asosiy vositalarini sotishi natijasida esa karxonaga pul mablag‘lari kelib tushadi. Kelib tushgan va sariflangan pul mablag‘lari orasidagi farq investitsion faoliyatdan sof pul oqimini tashkil qiladi.

Moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimi ($\mathbf{M_{SP}}$) bevosita korxonaning xususiy kapitali summasini o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, u eng avvalo o‘z mablag‘lari ($\mathbf{X_K}$) tarkibiga kiruvchi moddalarni hamda qisqa ($\mathbf{Q_{MQ}}$) va uzoq muddatli ($\mathbf{U_{MQ}}$) qarz mablag‘lari summasini o‘zgarishlari bilan bog‘liq, ya’ni

$$\mathbf{M_{SP} = \Delta X_K + \Delta U_{Mq} + \Delta Q_{Mq}.}$$

Keltirilgan formuladan ko‘rinib turibdiki, korxonaning o‘z va qarz mablag‘larini ko‘payishi bilan pul mablag‘lari tushumi ko‘payadi va aksincha ularni kamayishi esa pul mablag‘larini chiqib ketishini bildiradi.

Shunday qilib, pul mablag‘lari harakatini muntazam ravishda tahlil qilib borish nafaqat ular harakatini o‘rganish, balki ularni kirim va chiqimi orasidagi muozanatni ta’minlash, likvidlikni ta’minlash va qolaversa pul mablag‘larini optimal boshqarish orqali ularni samaradorligini ta’minlash imkonini beradi.

MOLIYAVIY HISOBOTNILARNNING XALQARO STANDARTLARI (IFRS) GA MOSLASHTIRISHNING AFZALLIKLARI.

Soliev Bahodir Kamolivich
TDIU dotsenti, i.f.n.
Sattoraliev Tolibjon Jahongir o‘g‘li
TDIU, Andijon fakulteti 3 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Moliyaviy hisobotni XMHS (IFRS) ga moslashtirishning bir qator afzalliklari hamda O‘zR Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish boyicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi № 4611 sonli qarorini bajarilishi natijasida erishiladigan yutuqlar haqida fikrlar bildiriladi.

***Tayanch so‘zlar*:** Moliya, standart, hisobot, investor, strategiya, raqobat, siyosat, investitsiya, hisob.

Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga (IFRS – International Financial Reporting Standards) moslashtirish jarayoni buxgalteriya hisobini xalqaro miqyosda tan olingan normalar va talablarga muvofiq qayta tashkil etishni anglatadi. Ushbu jarayon, ayniqsa, xalqaro bozorda faoliyat yuritishni yoki xorijiy investorlarni jalb